



CHARACTERISTICS OF THE FUNCTIONAL CAPABILITIES OF THE STATE MECHANISM OF NEW UZBEKISTAN

Mukaddas Rahimova

Associate Professor of the Department of "History"

Tashkent University of Applied Sciences

Email: mukaddasibragimovna1972@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: New Uzbekistan, state mechanism, public administration, functional capabilities, state reforms, digital technologies, public services.

Received: 11.12.25

Accepted: 12.12.25

Published: 13.12.25

Abstract: This article discusses the features of the functional capabilities of the new Uzbekistan state mechanism. In recent years, deep reforms have been carried out in the system of public administration of the Republic of Uzbekistan. The main goal of these reforms is to make the state mechanism more effective, transparent, and human-centered. The state mechanism of New Uzbekistan not only includes modern management principles, but also serves to form the country as a competitive state in the international arena at a new stage of development.

YANGI O‘ZBEKISTON DAVLAT MEXANIZMINING FUNKSIONAL IMKONIYATLARI XUSUSIYATLARI

Muqaddas Rahimova

"Tarix" kafedrası v.b. dotsenti

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Email: mukaddasibragimovna1972@gmail.com

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, davlat mexanizmi, davlat boshqaruvi, funksional imkoniyatlar, davlat islohotlari, raqamli texnologiyalar, davlat xizmatlari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada, yangi O‘zbekiston davlat mexanizmining funksional imkoniyatlari xususiyatlari haqida fikr va mulohazalar yuritiladi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi tizimida chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning asosiy

maqsadi davlat mexanizmini yanada samarali, shaffof va inson manfaatlariga yo'naltirilgan qilishdan iborat. Yangi O'zbekiston davlat mexanizmi nafaqat zamonaviy boshqaruv tamoyillarini o'z ichiga oladi, balki mamlakatni yangi rivojlanish bosqichida xalqaro maydonda raqobatbardosh davlat sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

ХАРАКТЕРИСТИКИ ФУНКЦИОНАЛЬНЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОГО МЕХАНИЗМА НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Мукаддас Рахимова

и.о. доцента кафедры "История"

Ташкентского университета прикладных наук

Email: mukaddasibragimovna1972@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Новый	Аннотация:
Узбекистан, государственный механизм, государственное управление, функциональные возможности, государственные реформы, цифровые технологии, государственные услуги.	Новый	В данной статье рассматриваются особенности функциональных возможностей нового государственного механизма Узбекистана. В последние годы в системе государственного управления Республики Узбекистан осуществляются глубокие реформы. Главная цель этих реформ - сделать государственный механизм более эффективным, прозрачным и ориентированным на человека. Государственный механизм Нового Узбекистана не только включает в себя современные принципы управления, но и служит формированию страны как конкурентоспособного государства на международной арене на новом этапе развития.

Kirish. Davlat hokimiyati faoliyatini amalga oshirish uchun muhim demokratik tamoyillar mavjud bo'lib, ularga davlat suvereniteti, Konstitutsiya va qonun ustuvorligi, xalq hokimiyatchiligi, demokratizm, jinoyat uchun jazoning muqarrarligi va boshqalar kiradi. Ushbu tamoyillarga muvofiq, ijtimoiy adolat, qonun va adolatning ustuvorligi, davlat organlarining ochiqligi, islohotlarning o'zlari uchun emas, avvalo inson uchun amalga oshirilishi, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi, inson manfaatlari har narsadan ustun qo'yilishi, shuningdek tizimlilik va shaffoflik kabi tamoyillar izchil tarzda amalga oshirilishi lozim.

Konstitutsiyamizda belgilangan tamoyil va qoidalar asosida mamlakatda milliy qonunchilik tizimi shakllantirildi, uning asosi qonun ustuvorligidir. Ushbu tamoyil jamiyatimizda inson huquq

va erkinliklarini ta'minlash hamda barcha islohotlarni samarali amalga oshirishning muhim kafolatidir. Ushbu tamoyillarga qat'iy rioya qilgan holda davlat hokimiyati tarmoqlari faoliyatida xalq ehtiyojlari va manfaatlarini hisobga olish asosiy vazifa va birlamchi talab sifatida qabul qilinishi lozim. Ushbu tamoyilning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aniq ko'rsatilgan: davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik tamoyillari asosida amalga oshiradi.

Bunday konstitutsiyaviy holat shuni anglatadiki, davlat siyosatining ustuvor maqsadi - xalqning hayot darajasi va sifatini oshirishdir. Yangi rivojlanish bosqichiga kirgan jamiyatda pragmatik boshqaruvni shakllantirish va rivojlantirish masalalarining ahamiyati tobora ortib borayotgani muhimdir. Bu ijobiy fakt bo'lib, aynan shunday yondashuv davlat hokimiyati tizimi faoliyatini takomillashtirishning eng maqbul usullarini sinovdan o'tkazish va joriy etishga, shuningdek, uning samaradorligini ta'minlashga imkon beradi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayoni tezlashmoqda, ularning sifati oshmoqda, bu esa o'z navbatida raqobatbardosh muhitni yaratmoqda. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi tamoyili davlat qurilishining eng muhim tamoyillaridan biridir. Ushbu tamoyil davlatda qonun va huquq tartibining chinakam ishlashini anglatadi, ya'ni davlat organlari, muassasalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar qonun normalariga, xususan qonunlarga qat'iy rioya qiladilar.

Ushbu jarayonlarni samarali tashkil etishda ijtimoiy adolat tamoyilining ahamiyati katta. U ijtimoiy munosabatlarning asosini tashkil etadi. Biz o'z faoliyatimizda qonun ustuvorligiga, tartib-intizomga, shuningdek, inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratamiz. Qonun va adolatni himoya qilish hokimiyatning barcha bo'g'inlari, avvalo davlat boshqaruvi organlari va ayniqsa, huquqni muhofaza qilish idoralari uchun birinchi darajali vazifadir. Shu bilan birga, biz butun jamiyatimizning kuch va imkoniyatlarini shu yo'lda safarbar qilishni zarur deb hisoblaymiz. Aynan qonun doirasida amalga oshirilayotgan faoliyatda adolat ta'minlanadi.

Yangi davlat boshqaruvi usulining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- ma'muriy xodimlarning salohiyatini bir vaqtning o'zida kengaytirish bilan davlat sektorida professional boshqaruv mahorati va tajribasining ustuvorligi;
- davlat organlarining faoliyatini baholash mezonlarini kiritish;
- proseduralarni emas, natijalarni nazorat qilish;
- davlat funktsiyalarining bir qismi uchun uchinchi shaxslarning shartnoma asosida jalb etilishi (outsorsing);
- tanlov g'oyasini joriy etish (meritokratiya tamoyili);
- korporativ boshqaruv usullaridan foydalanish;

- resurslar tasarrufida intizom va tartibni mustahkamlash;
- fuqarolik nazoratini byurokratiyadan jamiyatga o'tkazish (kontrolling).

Demak, pragmatik boshqaruvidagi demokratik jamiyatda davlat boshqaruvi faoliyatini tashkil etish va jamiyat hayotidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda davlat hokimiyati faoliyati bir-biriga uyg'un bo'lgan shunday muhim bo'lgan yangi tamoyillar tizimi asosida amalga oshiriladi. Ular umumiy va maxsus tamoyillarga bo'linadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda davlat boshqaruvining markazdan chetga qarab rivojlanishi, ya'ni dezentralizatsiya jarayoni amalga oshirilmoqda. Bu jarayon doirasida hududiy boshqaruv organlarining vakolatlari kengaytirilmoqda, ularning moliyaviy mustaqilligi oshirilmoqda va hududiy boshqaruv tizimining samaradorligi ta'minlanmoqda. Masalan, Vazirliklarning hududiy bo'linmalarini bitta binoga joylashtirish orqali "Yagona darcha" tizimi asosida xizmat ko'rsatishning samaradorligi oshirilmoqda.

Davlat boshqaruvi tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali xizmat ko'rsatish jarayonlari avtomatlashtirilmoqda, ish yurituv jarayonlari raqamlashtirilmoqda va fuqarolarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga erishilmoqda. "Ochiq idora" loyihasi doirasida davlat organlarining faoliyati shaffoflashtirilmoqda va fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchi oshirilmoqda. Davlat boshqaruvi tizimida kadrlar siyosatini takomillashtirish orqali malakali va mas'uliyatli kadrlar tarkibini shakllantirishga erishilmoqda. Bunda kadrlarni tanlov asosida ishga qabul qilish, ularning malakasini oshirish va faoliyatini baholash tizimlari joriy etilmoqda. Shuningdek, davlat organlarida yagona kadrlar reytingini yuritish orqali kadrlar faoliyati samaradorligi oshirilmoqda.

Davlat boshqaruvi tizimida fuqarolar bilan muloqot va hamkorlikni kuchaytirish orqali ularning davlat organlariga bo'lgan ishonchini oshirishga erishilmoqda. Fuqarolarni davlat boshqaruvi jarayonlariga jalb qilish, ularning fikr va mulohazalarini inobatga olish orqali boshqaruv tizimining samaradorligi oshirilmoqda. Davlat xizmatlarini sifatini oshirish orqali fuqarolarga ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini yaxshilashga erishilmoqda. Bunda xizmat ko'rsatish jarayonlarini soddalashtirish, xizmat ko'rsatish muddatlarini qisqartirish va xizmat ko'rsatish sifatini baholash tizimlarini joriy etish orqali davlat xizmatlarining sifatini oshirishga erishilmoqda.

Yangi O'zbekiston davlat mexanizmining funksional imkoniyatlarini rivojlantirish orqali davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, fuqarolarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va davlat organlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga erishilmoqda. Mazkur jarayonlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish, kadrlar siyosatini takomillashtirish, fuqarolar bilan muloqot va hamkorlikni kuchaytirish hamda davlat xizmatlarini sifatini oshirish kabi chora-

tadbirlar muhim ahamiyatga ega. Kelgusida ushbu yo'nalishlarda amalga oshiriladigan islohotlar davlat boshqaruvi tizimini yanada samarali va fuqarolarga xizmat qiluvchi mexanizmga aylantirishga xizmat qiladi.

Mazkur jarayonlarni samarali tashkil etishda ijtimoiy adolat tamoyili muhimdir. Ijtimoiy adolat tamoyili ijtimoiy munosabatlar asosini tashkil etadi. Biz o'z faoliyatimizda qonun ustuvorligi, tartib-intizom, inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga alohida e'tibor beramiz. Qonun va adolat himoyasi hokimiyatning barcha bo'g'inlari, eng avvalo davlat boshqaruvi organlari, ayniqsa, huquqni muhofaza qilish idoralarning birinchi darajali vazifasi bo'lib, ayni paytda butun jamiyatimizning kuch va imkoniyatlarini shu yo'lda safarbar etish shart, deb hisoblaymiz. Qonun doirasidagi faoliyatda adolat qaror topadi.

Quyidagi tamoyillarning muntazam ishlashi davlat va jamiyat hayoti farovonligi va samaradorligini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi, jumladan: qonuniylik tamoyili jamiyat hayotining barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi. Qonunlarga istisnosiz barchaning qat'iy og'ishmay rioya qilishi, (davlat organlari, jamoat birlashmalari, jismoniy va yuridik shaxslar) uning umumiy xususiyatidir. Demokratik davlatni shakllantirish, jamiyatda, qonunning ustuvorligi qaror topishini taqozo etadi. Yangicha talqinda, haqiqiy demokratiya bu – qonunlar diktaturasidir. Vaholanki, qonun doirasida erkin faoliyat ko'rsatish bularning bari faoliyatda samaradorlikni oshiradi.

O'z mazmun-mohiyati bo'yicha muhim bo'lgan mazkur tamoyil zamonaviy boshqaruvning yangi siyosiy modeli sifatidagi kreativlikka, stressga qarshilik ko'rsatishga qaratilgan trend formatdagi yangi boshqaruv texnologiyasidir. Unda faoliyat jarayoni odatdagidek emas, balki nostandart yondashuvlarda boshqariladi, ya'ni bunda mavjud muammolarga konstruktiv echim topa oladigan, kontseptual g'oyalarni amalga oshirishda tashabbus ko'rsata oladigan mexanizm tizimidir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bugungi davlat qurilishining muhim strategik yo'nalishi bu ochiq jamiyat qurish, xalq ichiga kirib borish, xalqqa xizmat qilish. Buning uchun to'g'ri qo'yilgan dastlabki oqilona qadam xalq bilan muloqot qilishdan boshlandi. Alohida ta'kidlash lozimki, bu kichik siyosatning katta yutug'idir. Xalq bilan muloqot qilishning samarali mexanizmi xalq qabulxonalarining tashkil etilishi baravarida shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi qarorning qabul qilinishi tizimning huquqiy asosini mustahkamladi. Qaror ijrosi fuqarolar murojaatlarining ijrosidir .

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to'g'risida axborot taqdim etishda fuqarolarning o'z sha'ni va qadr-qimmatini tajovuzlardan, o'z shaxsiy hayotiga aralashuvlardan himoya qilishga bo'lgan huquqlari va qonuniy manfaatlariga, shuningdek, fuqarolar va yuridik shaxslarning o'z ishchanlik obro'sini himoya qilishga bo'lgan huquqlariga rioya etish to'g'risidagi

qonun qabul qilindi. Mazkur qonunning qabul qilinishi bilan davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining ochiqligi ta'minlanib, ularning faoliyati to'g'risida keng jamoatchilikning xabardor bo'lish imkoniyatlarining aniq mexanizmlari yaratildi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon'yukturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda. Demak, asosiy talab: davlat boshqaruvini isloh qilish bo'yicha strategik muhim ustuvor chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish. Chunki, ijtimoiy va siyosiy integrasiya ning asosiy tamoyillaridan biri ham davlat boshqaruvini isloh qilish tamoyilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.T.: "O'zbekiston". NMIU. 2018. B. 19.
2. Mirziyoyev S. M. Ozarbayjon Respublikasi Milliy Majlisi.T.: "O'zbekiston". NMAU, 2019. p. 103.
3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonun, 4-moddasi. O'RQ-369-son 05.05.2014. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Rasmiy nashr. –T.: "Adolat". 2017. –B. 4.
5. O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan, yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoyishi.
6. <https://yuz.uz>